

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.04/02.07.2024.Tib. 122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

YADGAROVA SHAXODAT SOLIXOVNA

**AHOLI VA SANOAT KORXONALARIDAN HOSIL BO'LUVCHI OQAVA
SUVLARNING GIGIYENIK TAVSIFI (Buxoro shahri misolida)**

14.00.07 – Gigiyena

**tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg'ona-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)

Yadgarova Shaxodat Solixovna

Aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo'luvchi oqava suvlarning gigiyenik tavsifi (Buxoro shahri misolida)..... 3

Ядгарова Шаходат Солиховна

Гигиеническая характеристика сточных вод населения и промышленных предприятий (на примере города Бухары)..... 23

Yadgarova Shakhodat Solikhovna

Hygienic characteristics of wastewater from the population and industrial enterprises (using the example of the city of Bukhara)..... 45

E'lon qilingan nashrlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.04/02.07.2024.Tib. 122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

YADGAROVA SHAXODAT SOLIXOVNA

**AHOLI VA SANOAT KORXONALARIDAN HOSIL BO'LUVCHI OQAVA
SUVLARNING GIGIYENIK TAVSIFI (Buxoro shahri misolida)**

14.00.07 – Gigiyena

**tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg'ona-2024

Farg'ona-2024 Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.3.PhD/Tib3773. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Buxoro davlat tibbiyot institutida bajari lgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saf (www.tma.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Iskandarov Aziz Baxromovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Axmadaliyeva Nigora Odilovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Boboyev Abdunaim Boboyevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertasiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «21» sentyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 712000, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi. 2-uy. Tel. 243-06-62. Faks: 243-06-62, e-mail: info@fisti.uz).

Dissertasiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (783 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 712000, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi. 2-uy. Tel. 243-06-62. Faks: 243-06-62, e-mail: info@fisti.uz).

Dissertasiya avtoreferati 2024 yil «6» sentyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «21» sentyabr dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



F.Yu.Yuldashev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

M.T.Rasulova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

N.O.Ahmadaliyeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Keyingi yillarda aholi sonining o'sishi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yanada rivojlanishi suvga bo'lgan ehtiyojni oshib borishga olib kelmoqda. Bunday holatlar mavjud suv resurslarini yanada tejab-tergab foydalanishni, isrof qilmaslikni va suv manbalarni muhofaza qilishlikni taqozo etadi. Suv havzalari sanitariya muhofazasi eng muhim iqtisodiy muammolardan biri bo'lib, uning yechimi ko'p jihatdan aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash va ichak infeksiyalarining oldini olishga bog'liq. «...BMT ekspertlarining bashoratiga ko'ra 2050 yilga borib, suvga bo'lgan zaruriyat 20% ga ortadi. Aksariyat ko'p davlatlar suvdan foydalanishning imkoniyat chegarasiga erishib bo'lgan va yaqin kelajakda suv resurslarining yetishmasligi siyosiy muammoga aylanishi mumkin...»¹.

Jahonda aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo'luvchi oqava suvlarning gigiyenik tavsifini o'rganish bo'yicha qator maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada oqava suvlarni gigiyenik tavsiflash va tozalash inshootlarida oqava suvlarni tozalash samaradorligini o'rganish, suvlarni qabul qiladigan ochiq suv havzasini sanitariya-topografik va sanitariya-texnik va sanitar-epidemiologik tekshirishdan o'tkazish, tozalangan oqava suvlarning fizik, organoleptik, kimyoviy, bakteriologik va parazitologik parametrlar bo'yicha ochiq suv havzasining suv sifatiga ta'sirini o'rganish, ochiq suv havzasining ifloslanishini kamaytirish uchun chiqindi suvlarni tozalashni yaxshilash bo'yicha chora tadbirlar rejasini tavsiya etish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, suv ta'minotining izdan chiqishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni bartaraf etishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»² kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, oqava suvlarni tozalash jarayonining gigiyenik tavsifi va profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni optimallashtirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari, 2018 yil 18 dekabrda 4063-

¹Д.Х. Бектуров К изучению вопроса загрязнения водных ресурсов Республики Узбекистан "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5. S.292-302.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.

son «Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholini jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018 yil 30 noyabrdagi PQ-4040-son “O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2023 yil 24 oktabrdagi PQ-343-son «Ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilish darajasi. So‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, MDHda suv havzalarining oqava suvlar bilan ifloslanishi masalalariga qiziqishning kuchayishi Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya va Ukraina uchun ko‘proq xosdir (Proxorova I. B. (1997), Krivosheyeva G. G. (1998), Kichigin V. I. (2001), Don Van Gien (2003), Krashenina T. I. (2005), Blajko S. I. (2009), Zanosov V. I. (2011). Aholi markazlashtirilgan suv ta‘minoti tizimlarining samaradorligi, ichimlik suvi sifati hamda Chirchiq va Oxangaron daryolarining suv sifatiga antropogen ta‘siri prognozi baholangan (Usmanov I.A., 2018), eksperimental tadqiqotda oqava suvlar cho‘kmalariga ishlov berishda O‘YuCh-nurlanish samaradorligi isbotlangan (Obuxova M. V., 2021), markaziy suv ta‘minoti manbalarida iste‘molchilarni suv bilan ta‘minlash ishonchligini oshirish va baholash usullari takomillashtirilgan (Dushin A.S., 2023), yirik shaharlarda suv quvurlari eskirishini e‘tiborga olgan holda suv ta‘minoti tizimini optimallashtirilgan (Nugren X.K., 2019).

So‘nggi 20 yil ichida O‘zbekistonda suv havzalarini sanitariya muhofazasi masalalari bo‘yicha ham bir qator tadqiqotlar o‘tkazildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida temir yo‘l ishlab chiqarish korxonalarining tozalangan sanoat oqava suvlari sifatiga qo‘yiladigan me‘yoriy talablarni asoslash [Iskandarov T. I., Ilinskiy I. I., Tadjibaeva N. S., Musaev O. M. 2008, Iskandarova Sh.T., Usmanov I.A. 2020], respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini muhofaza qilish muammolarini hal qilishda zamonaviy tibbiy-gigiyenik yondashuvlar, O‘zbekistonda suv havzalari va ichimlik suvidan foydalanish monitoringi (Nuraliyev N.A. va xammual. 2017, Almatov B.I. 2019) shular jumlasidandir. Suv ob‘ektlarining sanitar muhofazasi, Buxoro shahar ochiq suv havzalarini sog‘lomlashtirish va muhofaza qilish bo‘yicha masalalar, ochiq suv havzalari suvi sifatini ya‘shilash bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni optimallashtirishni belgilashga imkon beruvchi ma‘lumotlar mavjud emas.

Yuqorida bayon etilganlar shundan guvohlik beradiki, suv ob‘yektlarini muhofaza qilish, jumladan Buxoro shahar ochiq suv havzalarini sog‘lomlashtirish, suv ob‘yektlarini muhofaza qilish bo‘yicha profilaktik chora tadbirlarni takomillashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi o‘ta muhim ijtimoiy muammolar qatoriga kiradi.

Dissertatsiya tadqiqotlarining dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqasi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mos

keladi. Tadqiqot "Aholi salomatligi, yashash muhitini muhofaza qilish va yaxshilash, xavf omillarini aniqlash va O'zbekiston Respublikasi aholisiga tibbiy-profilaktika yordamini takomillashtirish" mavzusidagi belgilangan mavzu doirasida (2021-2024 yy.) amalga oshirilgan. Davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami-03-4974 (2022-2026)».

Tadqiqot maqsadi: Buxoro shahri aholisi va sanoat korxonalaridan hosil bo'lgan oqava suvlarni tozalash jarayonlarining gigiyenik tavsifini o'rganish va profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro shahridan hosil bo'ladigan oqava suvlarini gigiyenik tavsiflash va tozalash inshootlarida oqava suvlarni tozalash samaradorligini o'rganish;

Buxoro shahri oqava suvlarni qabul qiladigan ochiq suv havzasini sanitariya-topografik va sanitariya-texnik va sanitar-epidemiologik tekshirishdan o'tkazish;

Tozalangan oqava suvlarning fizik, organoleptik, kimyoviy, bakteriologik va parazitologik parametrlar bo'yicha ochiq suv havzasining suv sifatiga ta'sirini o'rganish;

Stansiya hududida hosil bo'ladigan cho'kmaning to'planish sharoiti va uni zararsizlantirish usullarini o'rganish;

Ochiq suv havzasi ifloslanishini kamaytirish uchun chiqindi suvlarni tozalashni yaxshilash bo'yicha chora tadbirlar rejasini tavsiya etish va ularning samaradorligini baholash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Buxoro shahar oqava suvlarni tozalash stansiyasi va uning tarkibidagi tozalash qurilmalari tanlab olingan. Tadqiqotning predmeti sifatida suvdan olingan namunalar, ularning kimyoviy, bakteriologik, parazitologik tekshirishlar natijasida ma'lumotlar olingan.

Tadqiqot predmeti: oqava suvlarni tozalash, mexanik tozalash, biologik tozalash va zararsizlantirishning texnologik jarayoni va uni stansiyada to'planadigan cho'kmalarni zararsizlantirish usullari bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy izlanish jarayonida sanitar gigiyenik, sanitar bakteriologik, parazitologik, laborator, instrumental va statistik usullardan foydalanilgan. Ochiq suv havzalarini sanitar topografik tekshirishda sanitar tavsiflash usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta Buxoro shahar oqava suvlarini tozalash inshootlarining xususiyatlari zarar va xavf darajasi bo'yicha har tomonlama gigiyenik baholangan;

Dengizko'l ochiq suv havzasi sanitar topografik tekshirilgan sanitar gigiyenik holati kompleks baholangan;

oqmaydigan suv manbasiga kiruvchi Dengizko'lining suvi sifatiga tozalangan chiqindi suvlarning ko'rsatadigan ta'siri gigiyenik asoslangan;

amaldagi talablarga ko'ra mexanik, biologik tozalash inshootlari ish samaradorligini oshirish, chiqindi suvni zararsizlantirish qurilmalarining texnik va gigiyenik samaradorligini kuchaytirish bo'yicha chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat :

oqava suvlarni tozalash samaradorligini aniqlash maqsadida gigiyenik talablar asoslangan va ishlab chiqilgan;

oqava suvlarni tozalash inshootlarining samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

ilmiy-tadqiqot natijalari Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limlari, suv va kommunal xo'jaligi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, tanlangan materiallar sonining yetarliligi, tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy o'zaro bir-birini to'ldiruvchi gigiyenik, organoleptik, fizik-kimyoviy, analitik va statistik tadqiqot usullar yordamida ishlov berilganligi, shuningdek, aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo'luvchi oqava suvlarining gigiyenik tavsifi Buxoro shahri misolida suv tanqisligi muammosini hal etishda xalqaro hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati issiq iqlim sharoitiga kiruvchi Buxoro shahar aholisi va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'lgan chiqindi suvlarni tozalashga ixtisoslashgan Buxoro shahar kanalizatsiya tozalash inshootining ish faoliyati, qurilmalarning texnik va gigiyenik samaradorligini baholash, mazkur qurilmalarning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora –tadbirlarni belgilash, Dengizko'l ochiq suv havzasini sanitar topografik tekshirish, mazkur suv havzasini sanitar yohlatini kompleks baholash, ilk bor issiq iqlim sharoitida oqmaydigan suv manbasiga kiruvchi Dengizko'lning suvi sifatiga tozalangan chiqindi suvlarning ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish va ilmiy asoslangan nazariy asoslari yaratilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Buxoro shahar aholisi va korxonalaridan hosil bo'lgan chiqindi suvlarni o'z vaqtida va samarali tozalashga qaratilgan chora – tadbirlarni ishlab chiqish, tozalangan chiqindi suvlarni Dengizko'l suvlariga tashlanish sharoitlarini sanitar-texnik va sanitar-topografik tekshirishdan, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish orqali Dengizko'l suv manbasidagi biologik xilma - xillikni saqlab qolish, xududiy ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo'luvchi oqava suvlarning gigiyenik tavsifi (Buxoro shahri misolida) bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Birinchi ilmiy yangilik. Ilk marta Buxoro shahar oqava suvlarini tozalash inshootlarining xususiyatlari zarar va xavf darajasi bo'yicha har tomonlama gigiyenik baholangan; Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati issiq iqlim sharoitiga kiruvchi Buxoro shahar aholisi va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'lgan chiqindi suvlarni tozalashga ixtisoslashgan Buxoro shahar kanalizatsiya tozalash inshootining ish faoliyati, qurilmalarning texnik va gigiyenik samaradorligini baholash, mazkur qurilmalarning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora –tadbirlarni belgilash. Olingan ilmiy natijalar shahar chiqindi suvlarini tozalashning gigiyenik jihatlari va tozalash qurilmalari ish samaradorligini gigiyenik baholangani Buxoro viloyati Shofirkon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha buyruq (09.10.2023 y.) №1/341 hamda G'ijduvon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha (19.10.2023 y.) №5/482 buyruq bilan amaliyotiga joriy etilgan.

Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: Olingan natijalar asosida tavsiya etilgan chora tadbirlarning qo'llanilishi, aholini suvdan foydalanish sharoitlarini

yaxshilashga, suv resurslaridan oqilona foydalanishga, aholi o'rtasida suvga bog'liq bo'lgan kasallanish holatlarini kamaytirishga, mintaqadagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarning oldini olishga imkon beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: kanalizatsiya qurilmalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun yillik ekspluatasion xarajatlarni hisoblab chiqish zarur, u esa ishga to'lanadigan maosh fondi, amartizatsion chiqimlar, ishlab chiqarish qiymati, elektr energiyasi, issiqlik, gaz, transport va reagentlar qiymatidan kelib chiqadi. 1 m³ chiqindi suvni tozalash uchun 6 ming 554 so'm mablag' sarflanadi. **Xulosa:** Buxoro shahar aeratsiya stansiyasi ish qurilmalarining chiqindi suvlarni tozalashining loyihaviy quvvati 100 000 m³ ni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot natijasida Buxoro shahar oqava suv taminoti MCHJ ning suv tozalash qurilmalarining sozligini saqlashga erishiladi va byudjetdan tashqari mablag'larni 550 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

Ikkinchi ilmiy yangilik. Dengizko'l ochiq suv havzasi sanitar topografik tekshirilgan va sanitar gigiyenik holati kompleks baholangan; Dengizko'l ochiq suv havzasini sanitar topografik tekshirish, mazkur suv havzasining sanitar gigiyenik holatini kompleks baholash, ilk bor issiq iqlim sharoitida oqmaydigan suv manbasiga kiruvchi Dengizko'lning suvi sifatiga tozalangan chiqindi suvlarning ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish va ilmiy asoslangan nazariy asoslari yaratilganligi bilan izohlangan. Olingan ilmiy natijalar shahar chiqindi suvlarini tozalashning gigiyenik jihatlari va tozalash qurilmalari ish samaradorligini gigiyenik baholangan Buxoro viloyati Shofirkon tumani sanitar-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha buyruq (09.10.2023 y.) №1/341 hamda G'ijduvon tumani sanitar-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha (19.10.2023 y.) №5/482 buyruq bilan amaliyotiga joriy etilgan.

Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: Olingan natijalar asosida tavsiya etilgan chora tadbirlarning qo'llanilishi, aholining suvdan foydalanish sharoitlarini yaxshilashga, suv resurslaridan oqilona foydalanishga, aholi o'rtasida suvga bog'liq bo'lgan kasallanish holatlarini kamaytirishga, mintaqadagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarning oldini olishga imkon beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: kanalizatsiya qurilmalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun yillik ekspluatasion xarajatlarni hisoblab chiqish zarur, u esa ishga to'lanadigan maosh fondi, amartizatsion chiqimlar, ishlab chiqarish qiymati, elektr energiyasi, issiqlik, gaz, transport va reagentlar qiymatidan kelib chiqadi. 1 m³ chiqindi suvni tozalash uchun 6 ming 554 so'm mablag' sarflanadi. **Xulosa:** Buxoro shahar aeratsiya stansiyasi ish qurilmalarini chiqindi suvlarni tozalashining loyihaviy quvvati 100 000 m³ ni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot natijasida Buxoro shahar oqava suv ta'minoti MCHJ ning suv tozalash qurilmalarini sozligini saqlashga erishiladi va byudjetdan tashqari mablag'larni 550 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

Uchinchi ilmiy yangilik. Oqmaydigan suv manbasiga kiruvchi Dengizko'lning suvi sifatiga tozalangan chiqindi suvlarning ko'rsatadigan ta'siri gigiyenik asoslangan; Buxoro shahar aholisi va korxonalaridan hosil bo'lgan chiqindi suvlarni o'z vaqtida va samarali tozalashga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqish, tozalangan chiqindi suvlarni Dengizko'l suvlariga tashlanish sharoitlarini sanitar-texnik va sanitar-topografik tekshirishdan, olingan natijalarni amaliyotiga joriy etish orqali Dengizko'l suv manbasidagi biologik xilma - xillikni saqlab qolish, hududiy ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish bilan izohlangan.

Olingan ilmiy natijalar shahar chiqindi suvlarini tozalashning gigiyenik jihatlarini va tozalash qurilmalari ish samaradorligi gigiyenik baholangan Buxoro viloyati Shofirkon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha buyruq (09.10.2023 y.) №1/341 hamda G'ijduvon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha (19.10.2023 y.) №5/482 buyruq bilan amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** Olingan natijalar asosida tavsiya etilgan chora tadbirlarning qo'llanilishi, aholini suvdan foydalanish sharoitlarini yaxshilashga, suv resurslaridan oqilona foydalanishga, aholi o'rtasida suvga bog'liq bo'lgan kasallanish holatlarini kamaytirishga, mintaqadagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarning oldini olishga imkon beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: Kanalizatsiya qurilmalarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun yillik ekspluatasion xarajatlarni hisoblab chiqish zarur, u esa ishga to'lanadigan maosh fondi, amortizatsion chiqimlar, ishlab chiqarish qiymati, elektr energiyasi, issiqlik, gaz, transport va reagentlar qiymatidan kelib chiqadi. 1 m³ chiqindi suvni tozalash uchun 6 ming 554 so'm mablag' sarflanadi. **Xulosa:** Buxoro shahar aeratsiya stansiyasi ish qurilmalarini chiqindi suvlarni tozalashining loyihaviy quvvati 100 000 m³ ni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot natijasida Buxoro shahar oqava suv taminoti MCHJ ning suv tozalash qurilmalari sozligini saqlashga erishiladi va byudjetdan tashqari mablag'larni 550 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

To'rtinchi ilmiy yangilik. Amaldagi talablarga ko'ra mexanik, biologik tozalash inshootlari ish samaradorligini oshirish, chiqindi suvni zararsizlantirish qurilmalarining texnik va gigiyenik samaradorligini kuchaytirish bo'yicha chora tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan; tozalangan chiqindi suvlarni Dengizko'l suvlariga tashlanish sharoitlarini sanitar-texnik va sanitar-topografik tekshirishdan, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish orqali Dengizko'l suv manbasidagi biologik xilma - xillikni saqlab qolish, hududiy ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish bilan izohlangan. Olingan ilmiy natijalar shahar chiqindi suvlarini tozalashning gigiyenik jihatlarini va tozalash qurilmalari ish samaradorligini gigiyenik baholangan Buxoro viloyati Shofirkon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha buyruq (09.10.2023 y.) №1/341 hamda G'ijduvon tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi bo'yicha (19.10.2023 y.) №5/482 buyruq bilan amaliyotiga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** Olingan natijalar asosida tavsiya etilgan chora tadbirlarni qo'llanilishi, aholining suvdan foydalanish sharoitlarini yaxshilashga, suv resurslaridan oqilona foydalanishga, aholi o'rtasida suvga bog'liq bo'lgan kasallanish holatlarini kamaytirishga, mintaqadagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarning oldini olishga imkon beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: Kanalizatsiya qurilmalari iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun yillik ekspluatasion xarajatlarni hisoblab chiqish zarur, u esa ishga to'lanadigan maosh fondi, amortizatsion chiqimlar, ishlab chiqarish qiymati, elektr energiyasi, issiqlik, gaz, transport va reagentlar qiymatidan kelib chiqadi. 1 m³ chiqindi suvni tozalash uchun 6 ming 554 so'm mablag' sarflanadi. **Xulosa:** Buxoro shahar aeratsiya stansiyasi ish qurilmalarining chiqindi suvlarni tozalashining loyihaviy quvvati 100 000 m³ ni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot natijasida Buxoro shahar oqava suv taminoti MCHJ ning suv

tozalash qurilmalarini sozligini saqlashga erishiladi va byudjetdan tashqari mablag'larni 550 000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2-maydagi PQ-855 sonli qaroriga asosan «Aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo'luvchi oqava suvlarining gigiyenik tavsifi» loyihasini amalga oshirish 48,261 million dollarni ajratilib, bundan 44,973 million dollarni Xitoy Xalq Respublikasi Eksimbankining 20 yillik kredit mablag'i (5 yillik imtiyoz bilan), shuningdek, 3,282 million dollari mamalakatimiz byudjet mablag'idan va 0,005 million dollari Buxoro viloyat Suvoqava ishlab chiqarish boshqarmasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Buxoro viloyati Olot tumanida joylashgan Dengizko'l suv havzasidan foydalanish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu loyihani amalga oshirish Buxoro shahri va tumanlari markazlashtirilgan oqova suv bilan ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zaruriyatining asoslanishi taqdim etilgan, maqsad va vazifalar, ob'yektlar va tadqiqot predmeti shakllantirilgan, tadqiqotni O'zbekiston respublika fan va texnologiyalari rivojlanishini ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ketma - ket bayon etilgan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha materiallar, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning "**Ochiq suv manbalarini ifloslantiruvchi manbalarini gigiyenik baholashning zamonaviy aspektlari**" deb nomlangan birinchi bobida yer osti va yer usti yuza suvlarini asosiy ifloslantiruvchi manbalarining guruhlari, mazkur manbalar suvlarini suvdan foydalanish va suv sifatiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri, sobiq ittifoqning ko'plab yirik davlatlarida mavjud bo'lgan tozalash inshootlari, chiqindi suvlarni tozalashda xorijiy davlatlar tajribasi, tozalash kanalizatsiya inshootlaridagi qurilmalarning samaradorlik ko'rsatkichlari, qurilmalarni tanlab olishda amal qilinadigan qoidalar, aholining suv bilan bog'liq bo'lgan kasallanish ko'rsatkichlari, issiq iqlim mintaqasida joylashgan yirik va o'rta kattalikdagi shaharlardan hosil bo'ladigan chiqindi suvlarini tozalash qurilmalari ish samaradorligini oshirish yo'llari, aholidan hosil bo'luvchi chiqindi suvlarni tozalash usul va qurilmalaridan foydalanish holati va korxonalaridan hosil bo'ladigan chiqindi suvlarni tozalashning o'ziga xosliklariga oid materiallarning to'liq tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tekshirish materiali va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida aholi va sanoat korxonalaridan hosil bo‘lgan oqava suvlarning gigiyenik tavsifini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni olib borishda qo‘llanilgan usul va materiallar bayon etilgan. Oqava suvlarni tozalashda qo‘llaniladigan usullar asosan sanitar, kimyoviy va bakteriologik usullarga bo‘linib, Buxoro shahri aholisidan va shahar hududida mavjud bo‘lgan, faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo‘layotgan oqava suvlarni tozalash inshootlarining ish samaradorligini tekshirish, stansiya hududida mavjud bo‘lgan idoraviy laboratoriyaning kimyoviy bo‘limi va Buxoro shahar “Suv ta‘minot” boshqarmasi tasarrufidagi bakteriologik laboratoriyalar bilan o‘zaro hamkorlikda stansiyadagi mavjud mexanik, biologik va zararsizlantirish bosqichlarida qo‘llaniladigan har bir qurilmaning ish samaradorligini o‘rganish uchun ulardan muntazam ravishda namunalar olingan va ular kimyoviy va bakteriologik laboratoriyada organoleptik, sanitar-kimyoviy va bakteriologik ko‘rsatkichlarni aniqlash maqsadida tekshirilgan. Chiqindi suvlarini suv havzalariga tashlash sharoitlarini aniqlash usullarini amaliyotga tadbiq qilishda I.D. Rodziller tomonidan taklif qilingan matematik hisoblash usullaridan foydalanilgan. Bunda tashlanayotgan chiqindi suv tarkibidagi muallaq moddalarning ruxsat etiladigan miqdorini hisoblash bo‘yicha tenglama, chiqindi suvning kislorodga bo‘lgan ehtiyoji chegara miqdorini aniqlash bo‘yicha tenglama, chiqindi suv tarkibidagi mineral tarkib, sulfatlar, xloridlar konsentratsiyasining ruxsat etilgan chegara miqdorini hisoblash bo‘yicha tenglama, chiqindi suv tarkibidagi zaharli kimyoviy moddalar konsentratsiyasining ruxsat etilgan miqdorini hisoblash tenglamasidan foydalanilgan. Suv havzalarini ifloslantiruvchi manbalarni aniqlash suv havzasini o‘sha joyning o‘zida ifloslantiruvchi manbalarini aniqlash asosida olib borilgan. Buning uchun maxsus sanitar kartadan foydalanib o‘rganildi, bunda quyidagi ko‘rsatkichlar baholandi: daryoning nomi, kengligi, o‘rtacha chuqurligi, suv oqimining tezligi, suv sarfi, suv hajmi; daryodagi suv hajmining o‘zgarishiga yog‘ingarchilik mavsumining ta‘siri, agar ta‘siri bo‘lsa, suv hajmi qanchaga ko‘tarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; suv havzasi qirg‘oqlarining holati, suv tubining holati; aholi turar joylariga nisbatan suv havzasining joylashgan o‘rni, qirg‘oqlarda qancha aholi yashashi haqidagi ma‘lumotlar; qirg‘oqda qanday turdagi ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi va ularning qirg‘oqqa nisbatan joylashgan o‘rni haqidagi ma‘lumotlar; suv havzalarini ifloslantiruvchi qanday manbalar mavjud, mazkur ochiq suv havzasiga o‘z chiqindi suvlarini tashlovchi korxonalar chiqindi suvlarining tarkibi haqidagi ma‘lumotlar.; suv havzasi qachon tozalangan; suv havzasidan nima maqsadlarda foydalaniladi; suv havzasining sanitar holati haqida umumiy xulosa; suv havzasini sanitar tekshirish natijasi asosida suv havzasiga chiqindi suvni tashlash shart sharoitini baholashdan iborat bo‘lgan.

Tozalash qurilmalarining holati, ulardan foydalanish sharoiti va ularning ish samaradorligini o‘z vaqtida hamda samarali baholashda muhim ko‘rsatkich bo‘lib laboratoriya tekshirish natijalari hisoblangan. Chiqindi suvlardan sinama olishda chiqindi suvning tarkibi va uning texnologik jarayonga texnog‘lik bog‘liq ekanligi hisobga olingan. Shuning uchun sinama olish joyi texnologik jarayonni chuqur o‘rgangandan so‘ng hal etilgan. Buxoro shahri aholisidan hosil bo‘lgan va kanalizatsiya stansiyasida tozalangan oqava suvlarni tashlash joyi Dengizko‘l suv manbasidan sanitar – kimyoviy, bakteriologik namunalar olindi, Dengizko‘l atrofi sanitar- topografik tekshiruvdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, statistika 10 amaliy dasturlar paketidan foydalanish bilan amalga oshirildi. Miqdoriy shkalalar bo'yicha ikki guruhni qiyoslash Mann-Uitnining noparametrik mezonlari asosida o'tkazildi. miqdoriy shkalalar bo'yicha uch va undan ortiq guruhlarini qiyoslash Kraskel-Uollesning noparametrik mezonlari asosida o'tkazildi. Tozalash inshootidagi qurilmalardan olingan natijalarni qiyoslash holatlaridagi ko'rsatkichlar dinamikasining tahlili Vilkonsonning noparametrik mezonlari asosida amalga oshirildi, Fridmanning noparametrik mezonlari asosida esa uch va undan ortiq ko'rsatkichlar qiyoslanganda foydalanildi.

Oqava suvlari mikrobiologik tekshiruvi oqava suvlarning mikrobiologik ko'rsatkichlari unda turli patogen mikroorganizmlar, suv o'tlari va zamburug'lar mavjudligining miqdoriy va sifat ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkichlar guruhini o'rganish oqava suvlarning epidemiologik xavfsizligini o'rnatish uchun amalga oshiriladi. Tadqiqot metodologiyasi va texnologiyasi oqava suvlarning turiga (sanoat, yer usti, maishiy) qarab belgilanadi. Tekshiruv jarayonida ichak tayyoqchasi, salmonellalar va boshqa zararli mikroblarning shtammlari mavjudligi aniqlanadi. Ko'rsatkichlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, septik tanklarni optimal tanlash bo'yicha tavsiyalar beriladi. Bir nechta quduqlardan suvning mikrobiologik tahlilini o'tkazishda suv oqimining eng qizg'in soatlarida har biridan alohida namunalar olinadi. Laboratoriyada namunalar mikrobiologik ko'rsatkichlar, shu jumladan umumiy mikroblar soni, koliformlar, E. coli uchun tekshiriladi.

Oqava suvlari parazitologik tekshiruvda oqava suvlarining parazitlar bilan ifloslanishini baholash uning epidemiologik xavfsizligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Parazitologik parametrlarni baholash uchun namunalar tozalash inshootlarining kirish va chiqish joylarida olinadi. Tahlil davomida oqava suvlarda gelmint tuxumlari va ichak protozoylari kistalari mavjudligi zamonaviy laboratoriya tadqiqot usullari yordamida aniqlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra biologik dezinfeksiya bo'yicha tavsiyalar beriladi. Xususiy kanalizatsiya tizimlari va kommunal xo'jaligi korxonalariga egalari ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan manfaatdor. Ichak protozoylari kistalari hamda yashovchan gelmlar o'rganildi.

Dissertatsiyaning "**Buxoro shahri aholisi va sanoat korxonalarida hosil bo'lgan oqava suvlarini tozalash jarayonlarining gigiyenik tavsifi va tahlillar asosida ishlab chiqilgan profilaktik chora tadbirlar**" deb nomlangan uchinchi bobida Buxoro shahri aholisi va ushbu hududdagi ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'ladigan chiqindi suvlarining gigiyenik tavsifi va tozalash aerostansiyasining ish samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash materiallari bayon etilgan. Shahardagi markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimi faqat 52% aholini qamrab olgan. Shahar hududida 1500 dan ortiq ko'p qavatli turar joy va jamoat binolari, davolash - profilaktika muassasalari, yirik ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat olib borayotgan shu kunlarda, kanalizatsiya tizimining bunday past foizi vaziyatni yanada murakkablashtiradi, vaholanki oxirgi uch yil davomida shahardagi ko'p qavatli turar joy binolarini qurish jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda, ularga esa ichimlik suv tizimi bilan bir vaqtda markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimi ham zarurdir.

Har bir kanalizatsiya tozalash inshootiga bir sutka davomida kelib tushadigan moddalar hisobidan kanalizatsiya tozalash inshooti tarkibidagi tozalash qurilmalarining turi, soni va samaradorligi belgilangan.

Keltirilgan tasvirlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan nafaqat markaziy shaharlar, balki chekka viloyat va undagi tumanlarning infratuzilmasiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, hukumatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan qator qonuniy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 noyabridagi "O'zbekiston Respublikasida ichimlik suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4040-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27-aprelidagi "2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi №215 sonli qarori ham bundan guvohlik beradi.

Shahar chiqindi suvlari odatdagidek korxonaga va aholidan hosil bo'ladigan oqava suvlarning aralashmasidan iborat, shahardagi to'qimachilik korxonalarida mavjud bo'lgan mahalliy tozalash inshootlaridan o'tgan chiqindi suvlar aholidan hosil bo'lgan chiqindi suvlar bilan qo'shib, umumiy kollektor orqali Buxoro shahar kanalizatsiya stansiyasiga keladi va tozalanadi. Oqava suvlarning umumiy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2021-2023 yillar davomida Buxoro shahrida hosil bo'lgan, tozalanmagan chiqindi suv tarkibi (2021-2023), kuzatishlar soni 1000

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	M+m	O'zgarishlar diapazoni
Harorat	gradus C ⁰	20,4-40,0	25 gradus
pH	reaksiya	5,6-7,4	6,5-8,5
Tiniqlik	santimetr	0,3-1,4	0,75
Bo'yalish	graduslar	Och-to'q kulrang	20,0
Hidi	ball	Chirindi qo'lansa hid	0,4
Muallaq moddalar	mg/l	215,0-600,0	0,2
Quruq qoldiq	mg/l	170,0-600,0	9
Azot ammoniy	mg/l	23,0-32,5	0,2
Nitritlar	mg/l	0,06-4,1	5
Nitratlar	mg/l	0,0-7,4	40
Fosfatlar	mg/l	6,6-15,0	30
Xloridlar	mg/l	25,0-50,0	6
Sulfatlar	mg/l	20,0-85,0	40
EKBKE	mg/l	300,0-600,0	30
EKBBE ₅	mg/l	155,0-400,0	6
YuFM	mg/l	0,54-6,85	0,3
Yog'lar	mg/l	2,0-30,0	50
Neft mahsulotlari	mg/l	0,22-7,5	0,05
Fenollar	mg/l	0,01-0,255	
Formaldegid	mg/l	0,007-0,040	1000
Temir	mg/l	2,70-12,22	5
Xrom	mg/l	Ne opredeleno	
Mis	mg/l	0,010-0,17	0,06
Rux	mg/l	0,078-1,372	1000
Kadmiy	mg/l	0,004-0,013	0,015
Nikel	mg/l	0,01-0,03	
Koli –indeks	mg/dm ³	22x10 ⁶ -756x10 ⁶	

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilda Buxoro viloyatiga qilgan tashriflari davomida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki kreditlarini jalb qilgan holda viloyatdagi ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 626,1 million AQSh dollar mablag' ajratish belgilangan edi. Mazkur mablag'lar evaziga 2021-2025 yillarda mazkur loyiha to'liq amalga oshirilgandan so'ng shahar va tumanlardagi aholi punktlari aholisining 96,5 foizi markazlashgan holda toza ichimlik suvi bilan hamda shahar va tuman markazlaridagi 710 ming nafar aholi markazlashgan kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari yildan yilga Buxoro shahrida bir qator "Buxoro brilliant silk" O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasi; "Indorama Indast LTD" O'zbekiston – Singapur qo'shma korxonasi ; "Buxoro kotton tekstil" korxonasi; «Layxter Kamalak Tekstaylen», kabi bir qator yirik sanoat birlashmalari ishga tushdi. Bu korxonalarining aksariyat to'qimachilik va ip yigirish sanoati tarmog'i bo'lib, ularning texnologik jarayoni tarkibida albatta katta miqdorda chiqindi suv hosil bo'ladi, ularni chetlashtirish va tozalash esa muhim masaladir.

Kanalizatsiya tozalash inshootiga kelgan chiqindi suvlar tarkibidagi kimyoviy moddalar miqdori RET (ruxsat etilgan tashlash) darajasidan sezilarli darajada yuqori. Bu esa stansiyadagi biologik tozalash inshootlarining ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va tozalash ishlari ko'rsatkichlarining o'zgarishiga olib keladi. Chiqindi suv tarkibidagi bunday natijalarning asosiy sababi Buxoro shahrida va uning atrofida faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalari tarkibida mahalliy tozalash inshootlarining ishlamasligi yoki ish samaradorligining pastligi bo'lib hisoblanadi.

Buxoro shahri aholisi va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'ladigan oqava suvlarni tozalash aerostansiyasi ish bosqichlari mexanik, biologik va zararsizlantirish hamda cho'kmalarni qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2-jadval

Mexanik tozalash bosqichining maxsus ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Kirish	Mexanik tozalash bosqichidan oldin	1-son tashlash joyi	2-son tashlash joyi	3-son tashlash joyi
Muallaq moddalar	424,75±34,82	419,25±31,53	473,83 ±31,52	428,17 ±42,58	455,33 ±33,31
Temir	0,75±0,04	0,75±0,14	0,48 ±0,02	0,49 ±0,02	0,50 ±0,02
Sulfatlar	81,85±1,46	82,72±1,48	74,18 ±3,38	75,57 ±2,66	76,27 ±2,49
Xloridlar	18,09±1,09	17,71±1,18	17,48 ±1,62	19,59 ±1,34	19,60 ±1,27
Quruq qoldiq	22,88±0,63	22,95±0,65	24,15 ±0,62	23,90 ±0,73	23,43 ±0,76
Neft mahsulotlari	0,15±0,01	0,15±0,01	0,49 ±0,12	0,48 ±0,13	0,49 ±0,11

2-jadvalda keltirilgan mexanik tozalash bosqichi qurilmalarining maxsus ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, tozalash inshootiga kirish joyi, mexanik tozalash bosqichi qurilmalari, 1-2-3-son tashlash nuqtalaridan olingan namunalarda tozalash samaradorlik ko'rsatkichlariga mos kelmagan, biroq tozalash inshootidan keyin olingan ko'rsatkichlar gigiyenik me'yorlar darajasida ekanligi qayd etilgan. Shuning uchun ularni oshirishda sanitar-texnik (mavjud qurilmalarni takomillashtirish,) va sanitar-texnologik (ish jarayonini modernizatsiya qilish) chora tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

3-jadval

Biologik tozalash qurilmalarining maxsus ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Kirish	Biologik tozalash qurilma ko'rsatkichlari	№1 tashlash joyi	№2 tashlash joyi	№3 tashlash joyi
EKBBE-erigan kislorodga bo'lgan biokimyoviy ehtiyoj	47,43 ±3,69	30,88±4,38	31,30 ±4,25	31,48 ±4,25	30,38±14,50
EKBKE-erigan kislorodga bo'lgan kimyoviy ehtiyoj	218,58 ±45,15	119,37±37,44	120,70 ±38,13	116,37 ±36,68	95,70±30,17
Azot nitrat	1,95 ±0,18	2,84±0,11	2,80 ±0,12	2,69 ±0,12	3,17±0,10
Azot nitrit	0,12 ±0,01	0,17±0,01	0,18 ±0,01	0,19 ±0,01	0,18±0,02
Azot ammoniy	17,08 ±1,30	6,68±0,75	6,51 ±0,71	6,60 ±0,68	6,72±0,66
Reaksiya muhiti	8,50 ±0,19	8,65±0,21	8,52 ±0,21	8,48 ±0,22	8,37±0,22

Biologik tozalash bosqichi maxsus ko'rsatkich ma'lumotlari qurilmalarning ish samaradorligini sanitar-texnik, sanitar-topografik va sanitar-epidemiologik jihatdan RET me'yorlariga mos kelishini ko'rsatgan (3-jadval).

